

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BOLA NUTQINING NUQSON BILAN SHAKLLANISHIGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV

Bozorova Marjona Anvar qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti, magistrant.

e-mail: bozorovamarjona81@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-6699-9404>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bola nutqining kechikishi bilan bog'liq holatlar bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlar va jonli nutq namunalari misolida tadqiq etildi. Bundan tashqari, bola nutqining kechikish sabablari psixolingvistik jihatdan ko'rib chiqiladi, bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va bolalar auditoriyasi matnlari tahlil qilinadi. Bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda bola nutqidagi kamchiliklarning ifoda etilishi badiiy adabiyotlar misolida o'rganilib, umumiy xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: nutq kechikishi, alaliya, dizatriya, inolaliya, psixolingvistika, muloqot, ichki nutq.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ РЕЧИ РЕБЁНКА С РЕЧЕВЫМИ НАРУШЕНИЯМИ

Бозорова Маржона Анвар кизи

Навоийский университет инноваций, магистрант.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются случаи задержки речевого развития у детей на основе текстов, предназначенных для детской аудитории, и образцов живой речи. Кроме того, причины задержки речевого развития у детей рассматриваются с психолингвистической точки зрения, анализируются исследования и тексты для детей. Проявление дефектов речи у детей в текстах, предназначенных для детской аудитории, изучается на примере художественной литературы, и делаются общие выводы.

Ключевые слова: задержка речи, алалия, дизартрия, инолалия, психолингвистика, коммуникация, внутренняя речь.

A PSYCHOLINGUISTIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF SPEECH IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS

Bozorova Marjona Anvar qizi

Navoi University of Innovations, Master's Student.

Abstract.

This article examines the cases of children's speech delay using texts intended for a child audience and live speech samples. In addition, the causes of children's speech delay are considered from a psycholinguistic perspective, and research and texts for children are analyzed. The expression of speech defects in children's speech in texts intended for a child audience is studied using the example of fiction, and general conclusions are drawn.

Keywords: speech delay, alalia, dysarthria, inolalia, psycholinguistics, communication, inner speech.

Kirish. Ma'lumki, bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarni tadqiq etishda psixolingvistik yondashuv alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar uchun yaratilgan matn nafaqat muayyan mazmunni yetkazish vositasi, balki bolaning nutqiy, tafakkuriy, hissiy va kommunikativ rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim lingvistik omil sifatida namoyon bo'ladi. Bola tomonidan matnning qanday qabul qilinishi, undagi so'z va grammatik konstruksiyalarning qay darajada anglanishi, obrazlarning tasavvurda qayta tiklanishi hamda eshitilgan yoki o'qilgan axborotning xotirada saqlanishi psixolingvistikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biridir. Shu sababli bolalar matnlarini tahlil qilishda faqat ularning leksik-semantik yoki grammatik xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bunda matnning bolaning yoshiga, idrok darajasiga, lug'at boyligiga, tafakkur imkoniyatlariga va nutqiy tajribasiga muvofiqligi ham hisobga olinishi lozim.

Bola nutqining o'z vaqtida rivojlanishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, fikrini izchil va tushunarli shaklda bayon etalishi uning umumiy intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chunki aynan bolalik davrida o'zlashtirilgan nutqiy ko'nikmalar va shakllangan lisoniy qobiliyat endigina voyaga yetayotgan shaxsning keyingi hayoti uchun boshlang'ich poydevor vazifasini bajaradi. Bola atrofdagi olamni dastlab sezgi va idrok orqali anglay boshlasa, keyinchalik ushbu bilim va tasavvurlar til birliklari vositasida umumlashtiriladi, nomlanadi va ongda tizimlashtiriladi. Shunday ekan, nutqning shakllanishi faqat til birliklarini o'zlashtirish jarayoni emas, balki bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati, tasavvuri va ijtimoiy tajribasining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq murakkab psixolingvistik jarayondir.

Nutq insonning ijtimoiy hayotidagi eng muhim aloqa vositalaridan biri bo'lib, u muloqot qilish, fikr almashish, ehtiyoj va istaklarni ifodalash, hissiy holatni namoyon etish hamda jamiyat tajribasini o'zlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, bolalik davrida nutq kommunikativ vazifadan tashqari bilish, o'rganish va ijtimoiylashuv vositasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Bola nutq orqali kattalar bilan munosabat o'rnatadi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, voqea-hodisalarni nomlaydi, ularga munosabat bildiradi va asta-sekin mustaqil fikrlash imkoniyatini rivojlantiradi. Shu jihatdan bolaning nutqiy rivojlanish darajasi uning maktab ta'limiga tayyorgarligi, o'quv materiallarini o'zlashtirishi, savod chiqarishi hamda keyingi kommunikativ faoliyatining samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bola nutqining kechikish hodisasini psixolingvistik tomondan o'rganish uchun tilning idrok etilishi, ongda qayta ishlanishi va nutqiy struktura sifatida yuzaga chiqishini kognitiv va neyrolingvistik mexanizmlar orqali tahlil qilingan manbalarga murojaat qilish zarur.

Nutqning dastlabki funksiyasi — kommunikativdir (muloqotdir). Nutq, eng avvalo, ijtimoiy muloqot, o'z fikrini bayon etish va anglash qurolidir... Fikrning rivojlanishi dil (til), ya'ni fikrlashning lisoniy vositalari hamda bolaning ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan belgilanadi [1].

Bolada nutq kechikishi faqat fiziologik yoki biologik nuqson emas, balki ijtimoiy muloqot muhitining yetishmasligi va kognitiv interaksioning sustlashuvi natijasi ekanini ko'rsatadi. Bola atrofdagilar (kattalar) bilan muloqotga kirishmas ekan, unda ichki nutq va mantiqiy fikrlash mexanizmi ham sekinlashadi.

Vigotskiy til va fikrning rivojlanishi dastlab bir-biridan mustaqil ikki ildizga ega ekanini ta'kidlaydi: fikrgacha bo'lgan nutq — boladagi emotsional qichqiriqlar, g'uvullashlar (1 yoshgacha); nutqqacha bo'lgan fikrlash — bolaning amaliy harakatlar orqali atrofdagi obyektlarni tushunishi.

Taxminan 2 yoshlar atrofida ushbu ikki yo'nalish kesishadi: fikr lisoniy xarakter oladi, nutq esa intellektual (mantiqiy) tusga kiradi [2].

Bola bugun kattalar yordamida bajara olgan nutqiy va kognitiv amallarni ertaga mustaqil bajara oladi. Agar bola joylashgan muhitda kattalar tomonidan yetarli darajada ravon, emotsional va rag'batlantiruvchi muloqot strategiyalari, ya'ni savol-javob, birgalikda kitob ko'rish, rolli o'yinlar qo'llanilmasa, bolaning kognitiv va lisoniy tizimi o'rtasidagi bog'lanish sekinlashadi.

Bola hayoti kattalar hayoti va faoliyatiga uyg'unlashgan bo'ladi. Ayni paytda bolada unga ta'sir o'tkazish uchun biron-bir o'ziga xos insoniy vosita mavjud bo'lmaydi. Bu mazkur rivojlanishning asosiy genetik vazifasi — kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish qobiliyati va vositalarini shakllantirishdan iboratdir. Emotsional-erkin muloqot — ushbu yoshdagi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi.

Bolaning boshqalardan ajralib qolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning yetishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Bolaning kattalar bilan muloqotining dastlabki belgilari "jonlanish kompleksi", ya'ni bolaning kattalarga nisbatan emotsional-ijobiy munosabati ko'rinishida paydo bo'ladi. 2–2,5 oydan boshlab kichkintoy muloqotga kirishishni faol talab qila boshlaydi. Muloqotning birinchi shakli — emotsional-erkin (vaziyat-shaxs) shaklidir. Bu boshqa odamga bo'lgan qiziqish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xos holatdir [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, amaliy va diskursiv tahlil usullaridan foydalangan holda bolalar nutqining kechikishi va bola nutqida yuzaga keladigan nuqsonlar o'rganildi va bola nutqini rivojlantirish bo'yicha amaliy tajribalar berildi.

Tahlil va natijalar. Bola nutqining kechikishi bilan bog'liq dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ kompetensiyasi past darajada: eksperimental guruhda 65% bolalarda dialogik nutq faolligi yetishmasligi, 72% da emotsional leksika cheklanganligi, 58% da nonverbal muloqot (mimika, imo-ishora) samaradorligi past ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida ham shunga yaqin ko'rsatkichlar qayd etildi (farq statistik jihatdan ahamiyatsiz, $p > 0,05$).

Eksperimental guruhda o'yin va interfaol texnologiyalar qo'llanilgandan keyin quyidagi ijobiy dinamika kuzatildi: 1) dialogik nutq ko'nikmalari (savol berish, suhbatni davom ettirish) 48% ga oshdi (oldingi 32 ball → 78 ball); 2) nonverbal muloqot samaradorligi 62% ga yaxshilandi; 3) ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichi (tengdoshlar bilan hamkorlik, emotsional javob berish) 67% ga ko'tarildi; 4) umumiy kommunikativ kompetensiya balli o'rtacha 41% ga o'sdi (statistik jihatdan ishonchli, U-kriteriyasi bo'yicha $p < 0,01$).

Bundan tashqari, nazorat guruhida o'sish ancha past bo'ldi: dialogik nutqda faqat 18% o'sish, umumiy ko'rsatkich esa 14% ga oshdi. Bolalarning individual kuzatuvlari shuni tasdiqlaydiki, rolli o'yinlar va teatr terapiyasi orqali bolalar o'z fikrlarini erkinroq ifodalay boshlagan, qo'rquv va izolyatsiya kamaygan [4].

Bola uchun katta yoshli odam — bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli taassurotlar va borgan sayin so'z muhim ahamiyatga ega bo'lib boradigan o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chaqiriqqa javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan iboraga aylantirish orqali uning "kamchiliklarini tuzatadi" (Timur dadasining mashinasini ko'rib qoldi: "Bi-bi, dada". Ona: "Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz"). [1]

Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish, balki umumiy psixik rivojlanish ustunidir... Tilni egallash jarayoni — bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu, eng avvalo, tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir. [2]

Ba'zida bolada kuchli emotsional nutqiy zo'riqish va qo'rquv ta'sirida duduqlik, ya'ni logonevroz kabi holatlar ham

yuzaga kelishi mumkin:

“– B-b-bilmayman... – dedi u to’satdan chala so’zlarni bir-biriga ulay olmay, ko’zlari javdirab. – O-o-oyim aytdilar...”

U har bir bo’g’inda to’xtar, tomog’iga qandaydir tugun tiqilgandek so’zlari tutilib, yuzlari qizarib ketardi. Duduqlanishi kuchayganidan ko’zidan yosh chiqib ketayozdi.

– Shoshma, bolam, hovliqma, – dedi onam uning yelkasidan silab. – Nafasingni rostlab ol. Hech kim seni shoshirmayapti...

Bola chuqur tin oldi-da, barmog’ini labiga bosib, bir oz jim qoldi. Shundan keyingina so’zlarni asta-sekin, tutila-tutula bo’lsa ham tartibga solib gapira boshladi.” [3]

Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to’satdan yuz berishi, “o’z-o’zidan harakatga kelishi” bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko’rib chiqishni talab qiladi.

O’z-o’zini rivojlantirish jarayonlari nafaqat nutqda, balki mutlaqo bolalar faoliyati bo’lmish o’yinlar va bolalar qiziquvchanligi jarayonida ham yorqin namoyon bo’ladi hamda u kattalar rolini inkor etmaydi: kattalar bolalarning faolligiga javob beradi, bolaga e’tiborini qaratgani holda uni faoliyatga, muloqotga chorlaydi. [4]

“– A-a-assalomu alaykum... – Bola hayajondan to’xtab-to’xtab, birinchi so’zning bosh tovushini cho’zib yubordi.

– Va alaykum assalom, bolam. Nega duduqlanyapsan, tinchlikmi? – so’radi Usmon bobo bolaning holatidan xavotirlanib.

– H-h-haligi... otam aytdilar... s-s-sizga uchrasam...

Bola so’zlarni aytishga harakat qilar, lekin har bir bo’g’inda tili tanglayiga yopishib qolgandek to’xtalardi. Tomog’ida qandaydir tugun paydo bo’lgandek, yuz-ko’zi burishib, zo’riqish bilan gapirishga urinardi. Hayajoni ortgani sari duduqlanishi ham kuchayib borardi.” [5]

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida har bir bolaning nutqiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi:

- Ota-onalar tomonidan bolalar nutqini o’stirish maqsadida so’zlarni aniq va ifodali qilib doimiy so’zlashish;
- Bola nutqini o’stiruvchi aqliy va nutqiy o’yinlarni tashkil etish;
- Bolaga muntazam ravishda bola auditoriyasi uchun mo’ljallangan matnlar (ertak, masal, tez aytish)ni aytib berish va undan xotira qobiliyatini aniqlash maqsadida qayta so’rash;
- Logopedik usulda bola bilan kuniga 1 soat ishlash dasturini yo’lga qo’yish.

Tajribaga tortilgan bolalarning o’rtacha 25 foizida nutq rivojlanishida turli kamchiliklar kuzatilgan. Hozirgi kunda ota-onasining qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi, ma’lumot darajasi va boshqa omillardan qat’i nazar, taxminan har to’rt maktab yoshigacha bo’lgan bolaning birida nutqning kechikib rivojlanishi yoki nutq bilan bog’liq nuqsonlar mavjud. [6]

Xulosa qilib aytganda, bola nutqi bilan individual shug’ullanish uning nafaqat nutqiy, balki umumiy psixologik va intellektual rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mashg’ulotlar jarayonida bolaning xotirasi, diqqati, tafakkuri, tasavvuri va aqliy ishlash qobiliyati izchil rivojlanib boradi. Bola yangi so’zlarni o’zlashtirish, ularning ma’nosini anglash, eshitilgan yoki o’qilgan axborotni eslab qolish va qayta ifodalash orqali o’z nutqiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, individual yondashuv bolaning yosh, psixologik va lisoniy xususiyatlarini hisobga olish imkonini bergani sababli nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Bola bilan muntazam ravishda olib boriladigan individual nutqiy faoliyat uning mustaqil fikrlashi va o’z fikrini erkin ifodalash ko’nikmalarini ham shakllantiradi. Savol-javob, hikoya tuzish, matn mazmunini qayta bayon qilish, predmet va hodisalarni tavsiflash, o’xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash kabi topshiriqlar orqali bola axborotni oddiy qabul qiluvchi subyektdan uni mustaqil ravishda tahlil qiluvchi va qayta ishlab ifodalovchi faol shaxsga aylanib boradi. Natijada uning sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, umumlashtirish, taqqoslash, xulosa chiqarish va voqelikni til vositasida ifodalash qobiliyatlari rivojlanadi. Shuningdek, individual nutqiy mashg’ulotlar jarayonida bolaning nutqni eshitish, anglash va idrok etishga doir amaliy malakalari takomillashadi. U so’zlarning tovush tarkibini farqlash, talaffuz me’yorlariga rioya qilish, so’z va gaplarning mazmuniy aloqalarini tushunish, nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlash hamda ulardan muloqot jarayonida to’g’ri foydalanishni bosqichma-bosqich o’zlashtiradi. Bu esa bolaning faol va passiv lug’at boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to’g’ri gap tuzish, izchil nutq yaratish hamda kommunikativ vaziyatlarda o’z fikrini aniq va tushunarli ifodalashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avezov S. S., Sharipova M. B. Bolalarning nutqini o’stirish fanining asosiy nazariy matni: Majmua. — Buxoro: Tafakkur avlodi, 2019–2020. — 120 b.
2. Iskandarova G. Bolaning nutqiy faoliyati kechikishi sabablari va uni bartaraf etishga doir mulohazalar // O’zMU xabarlar. — Toshkent, 2021. — № 2. — B. 45–48.
3. Odiljonova M. A. Bolalar nutqini rivojlantirishning psixolinguistik xususiyatlari // Qo’qon DPI ilmiy xabarlar. — Qo’qon, 2023. — № 4. — B. 52–56.
4. To’xtaboyev X. Jannati odamlar: Roman. — Toshkent: Sharq, 2012. — 320 b.
5. To’xtaboyev X. Sariq devni minib: Roman. — Toshkent: Yozuvchi, 2017. — 256 b.
6. Выготский Л. С. Мышление и речь. 5-е изд., испр. — Москва: Лабиринт, 1999. — 352 с.
7. Поддьяков Н. Н. Психическое развитие дошкольников: подлинное и мнимое // Дошкольное воспитание. — Москва, 2006. — № 4. — С. 13–18.
8. Ушинский К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. Т. 2. — Москва: Педагогика, 1974. — 438 с.